



OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI

Turan International University

Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Xamidova Mardona Zafarjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni, ahamiyati hamda bolaning shaxs sifatida rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Oilaning tarbiyadagi yetakchi roli, maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogik vazifalari va ularning o'zaro hamkorligi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish omili sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda oila va maktabgacha ta'lim hamkorligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, maktabgacha ta'lim, hamkorlik, tarbiya, bola rivoji, pedagogik jarayon.

Abstract

This article highlights the essence and importance of cooperation between the family and preschool educational institutions, as well as its role in the development of the child as a personality. The leading role of the family in upbringing, the pedagogical functions of preschool education institutions, and their mutual collaboration are analyzed as key factors in improving the effectiveness of the educational process. In addition, innovative approaches to developing family–preschool cooperation in modern conditions are discussed.



Keywords: family, preschool education, cooperation, upbringing, child development, pedagogical process.

Kirish

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, „Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida“ 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lami kengaytirildi.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni „Oila yili“ deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasidaamalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.

Oila – bu bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo'lib, unda bola dastlabki axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar va hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Ota-onaning



tarbiyaviy madaniyati, dunyoqarashi, pedagogik savodxonligi bolaning shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom muhit, mehr-oqibat va o'zaro hurmat bolada ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantiradi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi.

O'z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonda oila va maktabgacha ta'lim muassasasining uzviy hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ta'lim-tarbiyaning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila bolaning ilk tarbiya maktabi bo'lsa, maktabgacha ta'lim muassasasi ushbu tarbiyani ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi samarali hamkorlik bolaning ta'lim va tarbiyasini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikda ishlashi bolaning o'qish va ijtimoiy hayotga



moslashuvini osonlashtiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligini samarali yo'lga qo'yish uchun ota-onalar bilan doimiy va ochiq muloqot olib borish, ularni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish hamda pedagogik bilimlarini oshirish muhim.

Ota-onalar va pedagoglar bir jamoa sifatida ishlaganda, bolalarning ta'lim va tarbiyasida yuqori natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda eng avvalo, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida ishonchli muhit shakllantirilishi zarur. Buning uchun ota-onalarning fikrlari va takliflari bilan qiziqish, fikr va takliflarini inobatga olish, ota-onalarga farzandlari haqidagi ma'lumotlarni, kum davomidagi faoliyatlarini ochiq va aniq yetkazish lozim. Shu bilan bir qatorda, ta'lim ashkiloti ota-onalar bilan muntazam muloqot qilib turishi kerak. Bunday muloqotlarni tashkil qilish uchun ota-onalar yig'ilishlari, seminarlar o'tkazilib turish, onlayn platformalar orqali aloqada bo'lib turish, individuallashtirgan uchrashuvlar va suhbatlar tashkil qilish o'z natijasini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik bolaning ta'lim sifati va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Oila vata'lim muassasasi o'rtasida mustahkam aloqalar bo'lmasa, bola tarbiyasida uzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bronfenbrennning ekosistemik nazariyasiga ko'ra, bolalar rivojlanishiga eng katta ta'sir mikro muhit, ya'ni oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali amalga oshiriladi. Epsteinning aytishicha, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi doimiy aloqalar bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi uchun oilaviy muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) va oila hamkorligini mustahkamlash bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan va amaliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'RQ-637-son, 23.09.2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim tizimining barcha



bosqichlarini, qamrab olgan bo'lib, maktabgacha ta'limda ham bolalarning zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari hamda ta'limning keying turlariga o'tishlari uchun sharoit yaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-3808-son, 27.06.2018-yil) oila institutini mustahkamlash, oilaning jamiyatdagi o'rnini oshirish va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, oila va ta'lim muassasalar faoliyati va maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligida ota-onalarni ta'lim jarayoniga, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etish ham eng samarali usullardan biri bo'lib, bunda ota-onalar uchun ochiq darslar tashkil qilish, mavjud fan yuzasidan o'tkaziladigan ochiq darslarga, mahorat darslariga, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Yangi yil bayrami, Xalqaro onalar kuni, "Navro'z sayli" tadbirlariga, "Eng yaxshi ertak o'qiydigan bola" ko'rik tanlovlariga, "Quvnoq startlar", "Sog'lom bola – sog'lom kelajak" nomli sport estafetalariga, "Ota-ona va bola sport festivali"- oilaviy sportmusobaqalariga taklif qilish yaxshi natija beradi.

Oila va maktabgacha ta'lim hamkorligining ahamiyati

Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar va maslahatlar;
- ochiq eshiklar kuni va tarbiyaviy tadbirlar;
- ota-onalar yig'ilishlari va seminar-treninglar;
- bolaning individual rivojlanishini muhokama qilish.



Hamkorlik natijasida ota-onalar farzandining qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini chuqurroq anglaydi, tarbiyachilar esa oiladagi sharoit va tarbiyaviy muhit haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligining bolalar hayotidagi samarali jihatlari sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin:

- oilada berilgan tarbiya va bilimlar maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va rivojlantiriladi;
- bolaning nutqiy, psixologik va jismoniy rivojlanishi yaxshilanadi;
- bola maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi uyg'un tarbiya natijasida o'zini jamiyatda erkin his qiladi;
- jamoada ishlash, muomala qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- ota-onalar pedagoglar bilan hamkorlik qilib, bolaga qanday yondashish kerakligini o'rganadilar;
- uy sharoitida tarbiya va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.
- oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi tufayli bola o'zini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qiladi, stress va qo'rquv hissini kamaytiradi, moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolaning aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiradi. Tarbiyachilar tomonidan olib boriladigan mashg'ulotlar, o'yinlar va tarbiyaviy tadbirlar bolaning mustaqil fikrlashi, nutqi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.



“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi II bob 2.5. da ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta’lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi ota-onalar 4 va mahalliy hamjamiyat 5 bilan o‘zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin bular:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo‘yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbatilari);
- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berish);
- ota-onalarni guruh yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);
- ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish);
- maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida



ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarining ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);

- bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi.

Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi bolaning barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi, bolalarda ijobiy fazilatlar va mustahkam bilim asoslarini shakllantiradi. Shu sababli, oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni doimiy ravishda rivojlantirib borish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda oila bilan hamkorlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ota-



onalar bilan doimiy aloqa oʻrnatish, onlayn maslahatlar, elektron kundaliklar va masofaviy seminarlar tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991.
2. Fayziyeva Z. "MTM va oila hamkorligi", *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 2/2016
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI UCHUN DAVLAT O'QUV DASTURI /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent-2022
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
5. <https://www.unicef.org/>